

QORAQALPOQ RAQSI USTASI

Kosekeyeva Zamira

O'zbekiston davlat xoreografiya
akademiyasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqola qoraqalpoq raqs san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan taniqli san'atkor, milliy raqs san'atini dunyoga tanitgan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Polat Madreymovning ijrochilik, baletmeysterlik va pedagogik mahoratiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ansambl, xoreografiya, folklor, an'ana, raqs, baletmeyster, kompozitsiya, ifodaviylik, etnografiya, meros.

МАСТЕР КАРАКАЛПАКСКОГО ТАНЦА

Аннотация. Статья посвящена исполнительскому, балетмейстерскому и педагогическому мастерству известного деятеля искусств, народного артиста Узбекистана и Каракалпакстана Полата Мадреймова, внесшего значительный вклад в развитие каракалпакского танцевального искусства.

Ключевые слова: ансамбль, хореография, фольклор, традиция, танец, балетмейстер, композиция, выразительность, этнография, наследие.

MASTER OF KARAKALPAK DANCE

Annotation. This article explores the performance, choreography, and teaching skills of the renowned artist, People's Artist of Uzbekistan and Karakalpakstan, Polat Madreimov, who made a significant contribution to the development of Karakalpak dance.

Keywords: ensemble, choreography, folklore, tradition, dance, choreographer, composition, expressiveness, ethnography, heritage.

Qoraqalpoq milliy raqs san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan fidoyi ustozlardan biri – iste'dodli raqqos, mohir baletmeyster, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Polat Madreymovdir.

Polat Madreymov 1942-yilda hozirgi Shimbay tumanida o'qituvchi oilasida dunyoga keladi. Bo'lajak ijodkor to'rt yoshida otasidan yetim qolgach, onasi va akasi bilan oilaviy sharoiti tufayli Kegeyli tumaniga ko'chib kelishadi. O'rta maktabni bitirib, Tahiatosh tumanidagi kurilish kasb-xunar bilim yurtida o'qishini davom ettiradi.

Juda ko'pchilik ijodkorlar yoshlik yillarida o'zlarini ko'plab sohalar orzusida obdon toblab, so'ng ko'ngilning tubida yashiringan eng oliy maqsad, eng ustuvor orzu sari taqdirning xukmi ila baholi qudrat intila boshlaydilar. Qaxramonimiz ham yoshligida rassomchilikka qiziqqanligi sababli 1961-yili Toshkent shaxridagi P.P.Benkov nomidagi rassomchilik bilim yurtiga o'qishga hujjat topshiradi. Oilaviy sabablar tufayli bu yerdagi o'qishi uzoq davom etmaydi va Nukusga qaytib, Berdaq nomidagi musiqali drama teatrida balet raqqosi sifatida faoliyat yurita boshlaydi.

Iste'dodi bor va mehnat qilishdan qochmaydigan inson jamiyatda doimo tungi osmonda yulduzlardan ko'ra bir qadar shu'lalirok bo'lgan oy kabi ko'zga tashlanib turadi. Polat Madreymov ham xuddi shunday insonlar safiga kiradi. U qaysi joyda ishlamasin, o'z kasbiga mehr bilan yondashadi, izlanishdan charchamaydi. U keyingi faoliyatini 2 yil davomida Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik opera va balet teatrining kechki spektakllarida olib boradi hamda 1964-yil Samarqand shahrida yangi ochilgan opera va balet teatrida o'z tajribasini yanada boyitadi. Xoreografiya sohasida ancha bilim va ko'nikmalarda charxlangan Polat Madreymov 1965-yil Toshkent xoreografiya bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirib, hozirgi Nukus madaniyat va san'at kollejida ilk pedagogik ishini olib boradi.

Ijodkorning qisqacha tarjimai xolidan uning doimo tinimsiz mehnatda, izlanishda bo‘lganligi bilib olish qiyin emas va uning shu to‘plagan bilimlar natijasi bugungi kunda yetuk qoraqalpoq raqs ustasi darajasiga olib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu sayi-xarakatlarning ilk mevalari sifatida o‘zi ta‘lim bergan hozirgi Nukus madaniyat va san‘at qollejining ilk qaldirg‘ochlari xalqning nazariga tusha boshlaydi. Kelajagi porloq bo‘lgan ushbu qollejning Ko‘beysin Berdikov, Erniyaz Baybekov, Orazbay Rajapov, Antonina Petrovicheva, Zida Shamuratova, G‘umshagul Bekmuratova, Ayjan Beknazarova, Galina Kuznetsova kabi ilk o‘rta malakali qadrlari 1967-yilda san‘at sohasida ustozlar duosi bilan mustaqil ijod faoliyatlarini boshlaydilar. Bu san‘at ahli, tarixiy maishiy raqs bo‘yicha Aday Alimov, klassik raqs bo‘yicha Naubet Abibnazarov va nihoyat, xalk raqslaridan eng fidokor ustozlaridan biri Polat Madreymov kabi ustozlardan raqs sohasida tahsil oladilar.

Polat Madreymov ilk kaldirg‘ochlarni muvaffakiyatli parvozga tayyorlagan ushbu maskanda bir nechta raqslar sahnalashtiradi va faqat raqs sohasida dars berib qolmasdan, o‘zi ham ko‘shilib raqsga tushib, har tomonlama o‘zini yaxshi ko‘rsatib, yaxshi ustoz hamda yaxshi raqqos sifatida ko‘pchilikning e‘tiboriga tushadi.

1968-chi yildan K.S.Stanislavskiy nomidagi Davlat musiqali drama va komediya teatri yonida 1956-yilda tashqil etilgan Berdaq nomidagi Davlat filarmoniyasida Liza Artyomovna Petrosovadan so‘ng baletmeysterlik ishini olib boradi.

Lekin o‘z bilimlaridan qonikmagan Polat Madreymov 1970-yilda Moskvadagi ikki yillik Teatr san‘ati institutining baletmeyster tayyorlovchi dargoxning sirtqi o‘kish kursida o‘z tajribalarini yanada boyitadi va Nukusga kelib, o‘z ishini davom ettiradi. Boyitilgan tajriba, qilingan mehnatlar, kuzatuvlar va o‘z sohasiga bo‘lgan cheksiz xurmat tez kunlarda samarali natija beradi. Filarmoniya o‘z oldiga ulkan maqsadlar ko‘yadi va ansambl tuzadi. Bu

ansambl hozirgi kunda hammaga tanish bo'lgan “Aykulash juldizlari” qoraqalpoq milliy folklor ansambli xisoblanib, bu nom berilgunga qadar ansamblning nomi bir necha marotaba o'zgarib kelgan hamda ansambl bo'lgandan beri Polat Madreymov baletmeyster hamda badiiy raxbar sifatida ish yuritib kelgan.

Bu ansamblning nomi tarkibidagi «Aykulash» so'zi ancha yillardan beri repertuardan chukur o'rin egallab kelayotgan «Aykulash» raqsidan olingan. Ansambl tarkibidagi tajribali yigit qizlarning xar bir chikishlari hammaga birdek manzur bo'lib, tomoshabinlar birdek ansambl faoliyatini yuqori baholab, natijada “yulduz” so'zi ansamblning nomiga ko'shib olinadi va hozirda ansambl “Aykulash juldizlari” degan nom bilan faoliyat yuritib kelmoqda.

Polat Madreymov rahbarligidagi ansamblning kunlik ishlari oldindan rejalashtirib, shu asosida vaqtdan imkon darajasida unumli foydalanishga urinishgan. Lekin xalq bayramlari, davlat tadbirlari yoki konsert dasturlari kutilayotgan bo'lsa, ish reja tizimi vaqtincha o'zgaradi va bayram tugashi bilan yana oldingi ish rejimiga qaytadi.

Qoraqalpoq urf-odatlariga bilan yaxshi tanishgan Polat Madreymov shu ansambllda doira zarblariga ikki qismdan iborat milliy qoraqalpoq raqsining zal o'rtasi tizimli xarakatini yaratib, o'zgacha talqinda sahnalashtirib kelingan raqlarni yanada rivojlantirib, qayta ishlab chikdi. Masalan, “Shag'ala” raqsini “Orol jigitlari” raqsiga aylantiradi va bu nom berilguncha ushbu raqs 20-ga yaqin boshqa-boshqa nomlar bilan yashagan hamda unga zarur bo'lgan bezak buyumlari va kiyimlariga katta e'tibor qaratib, 50 dan ortiq qoraqalpoq milliy raqsini sahnalashtirgan.

Chin ko'ngildan qilingan mehnat albatta yaxshi natija beradi. 1984-yili Polat Madreymovga Moskva san'at institutidan yukori malakali rejissyor-baletmeysterlik uchun yo'llagan hujjati bo'yicha Moskvaga chakiruv xati keladi. Bu oliy maskanda o'z bilim va ko'nikmalarini yanada charxlagan Polat

Madreymov o‘z ishiga qaytib, badiiy rahbar va baletmeyster sifatida faoliyatini davom ettiradi.

Polat Madreymov xabarlik qilgan “Aykulash juldizlari” qoraqalpoq milliy folklor ansambli, bugungi kunda O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkaziladigan xalk bayramlari hamda davlat tadbir, konsert dasturlarining ko‘tarinki qayfiyatda o‘tishiga o‘z xissasini ko‘shib, O‘zbekiston va Qaraqalpog‘iston milliy san’atini dunyo xalklariga tanitib kelmoqda. Bu ansambldan kelgusidagi ishlarida yanada katta natijalarga erishishiga bildiriladigan ishonch benixoY.

“Aykulash juldizlari” qoraqalpoq milliy folklor ansambli konsertlari nafaqat yurtimizda, balki ko‘plab xorijiy mamlakatlarda namoyish etib kelinmoqda. Milliy raqslar orqali minglab chet ellik tomoshabinlar qoraqalpoq xalqining madaniyati, marosimlari, urf-odatlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga egadirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usnatdinov SH. Birinshi qaraqalpaq baletmeysteri. – Nukus: 2011.
2. Avdeyeva L.A. O‘zbekiston raqs san’ati. – Toshkent: 1960.
3. Avdeyeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. – Toshkent: 2000.
4. Петросова Е.А. Каракалпакский танец. – Ташкент:1976.
5. Muxamedova M.A. Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixi. – T: 2021.